

QALBIMIZ SAN'ATGA OSHUFTA

Rashid Xoldorov,

Dramatik teatr va kino aktyorligi
ta'lim yo'nalishi I bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Vohidjon Saidov,

Teatr san'ati fakulteti o'quv ishlari bo'yicha dekan o'rinosari

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbek davlat teatrlarida nega tomoshabinlar soni kamligi, hozirgi yosh avlodga teatrda namoyish etiladigan spektakllarning o'rni, aynidanma kitob mutoalasining ahamiyati haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: teatr, spektakl, rejissor, tragediya, fantaziya, kitob, tomoshabin.

Аннотация. В данной статье говорится о том, почему мало зрителей в узбекских государственных театрах, и о роли представленных в театре спектаклей для нынешнего молодого поколения. Важность чтения книг в одно и то же время.

Ключевые слова: театр, спектакль, режиссер, фэнтези, трагедия, книга, зритель.

Annotation. This article talks about why the number of viewers in Uzbek state theaters is small, and about the role of the plays presented in the theater for the current young generation. The importance of reading books at the same time.

Keywords: theater, play, director, fantasy, tragedy, book, the viewer.

Yurtimizda bir paytlar teatrlar faoliyati va nufuzi Ovropadan qolishmasdi. Nimadir bo'ldi-yu, teatrlarimizga bo'lgan mehr, e'tibor birdan susayib ketdi. Ehtimol bu globallashuv davri bilan bog'liqdir. Ba'zi insonlar "Yuring, teatr ko'ramiz" deyishadi. Aslida teatr bu spektakl o'ynaladigan joy xolos. **Teatr** so'zi yunoncha "tomoshagoh", cheklangan joyda bir yoki bir necha aktyorlar ijro etadigan sahna ko'rinishi orqali tomoshabinga fikr uzatuvchi san'at turidir. Ba'zan teatr tomoshalari o'tkaziladigan binolarni ham *teatr* deb atashadi (aslida ularni *teatr binosi* deb atash o'rini).

Unda spektakl nima, degan savol tug'ilishi mumkin. **Spektakl** lotincha *spectaculum* – "tomosha" – teatr san'ati asari. Tanlangan pyesaning talqin rejalar, dekoratsiya va liboslarning eskizlari, rollar taqsimoti teatr badiiy kengashida muhokama qilinadi. Rejissor pyesa va obrazlarning talqin vositalarini muayyan g'oya va badiiy shaklga bo'ysundiradi. Spektaklning ko'rinishlari, yechimi va ramziy ishoralarini rassom bilan hamkorlikda hal qiladi. Aktyorlar bilan ishslash, mizansahnalarni belgilash, sahnaviy obrazlar va ular o'rtasidagi munosabatlarni shakllantirish spektakl yaratish jarayonining hal qiluvchi shartlaridan biridir. Spektakl sintetik asar bo'lgani uchun undagi bezak, jihoz, libos, pardoz, musiqa va

raqs vositalari, chiroqlar va turli effektlar uni yanada boyitadi. Bundan tashqari spektaklga individual aktyorlik mahorati hamda rejissorlik topilmalari spektaklning ma’no mazmuni va shakliga ko‘rk qo’shamdi. Hozirgi vaqtida mamlakatimizda bir qancha davlat teatrлari va xususiy teatrлar faoliyat olib bormoqda. Spektakllar uzlusiz namoyish etilmoqda. Yaqinda O’zbekiston davlat drama teatrida Molyerning “**Xasis**” spektakli tomoshabinlarga namoyish etildi. Undan oldin esa Uilyam Shekspirning birinchi tragediyasi “**Romeo va Julietta**” tomoshabinlarga taqdim qilingan edi. Lekin shunga qaramasdan bugungi kunda davlat teatrлarida kundan kunga tomoshabin soni kamayib bormoqda. Xo’sh, bunga asosiy sabab nima ekan:

1. Teatrлarimizda spektakllar tomoshabin talabiga javob bermaydimi?
2. Tomoshagohlar qulay emasmi?
3. Balki teatr faoliyat olib boradigan aktyorlarimizning mahorati yetishmas?

Yo‘q savolga javobni bu tariqa topa olmaymiz. Keling, ayni shu vaqtida G‘arbda qanday usul bilan tomoshabinlarni jalb etayotganini o‘rganamiz. G‘arb mamlakatlaridagi teatrлar tomoshabinlarni jalb qilish uchun zamonaviy ilm-fan texnologiyalaridan foydalanmoqda. Hozirgi paytda insonlar sun’iy intelektlarga tobe bo‘lib qolgan bir zamonda qanday qilib tomoshabinni jonli muloqotga taklif qilish mumkin degan savolga G‘arb mamlakatlarining teatrлari zamon bilan uyg‘unlashgan holda spektakllarni tomoshabinlarga talqin qilmoqda ekan. Bu degani spektaklda muhitni yanada aniqroq, ishonarliroq dekoratsiyadan, rekvizitlardan, chiroqlardan, zamonaviy texnologiyalardan foydalanishmoqda. Keyingi navbatda aktyorlarning tabiiyligi, kostyum detallarga alohida e’tibor qaratishi va albatta tomoshabinlar bilan ruhiy hamjihatlikda muammoni yechishidadir. Keyin G‘arb davlat teatrлarida nabotot olamidan ham tabiiy foydalanishmoqda, ya’ni jonli hayvonot olamidan mohirona foydalanib kelmoqda. Shu o‘rinda aytib o‘tish lozimki, G‘arb teatrлari tomoshabinlarni teatrga bevosita jalb etish uchun allaqachon brend darajasiga chiqqan aktyorlardan foydalanadi. Bu degani nima? Omma ichida mashhurlikka erishgan aktyorlarni, artistlarni spektaklda rol ijro etishga taklif qiladi. Shunda ana shu aktyorning ashaddiy muxlislari teatrlarga ham bevosita tashrif buyuradi. Bu ham teatrga jalb qilishning o‘ziga xos bir usulidir. Eng asosiysi rejissuraning mukammalligidadir, rejissoring dunyoqarashi kengligida, har xil fantastik topilmalar qila olishidadir.

Rejissor lotincha “boshqaraman” – spektakl, kino, televideniya va radio ko‘rsatuv eshittirishlarini, estrada va sirk dasturlarini sahnalaشتiruvchi shaxs. O‘z

ijodiy o‘ylari, maqsadi asosida tomoshaning barcha ishtirokchilari – aktyor, rassom, kompozitor, kinoda operator ishini birlashtirib, yangi tomoshaviy vogelik yaratadi. Shuning uchun rejissorlar o‘zlariga juda katta yukni oladilar. Bundan ko‘rinib turibdiki, Sharq mamlakatlariga nisbatan G‘arb mamlakatlaridagi teatrлar ancha rivojlangan. Shuning uchun teatrлarda tomoshabinlar uchun joy qolmayapti. Demak, shunday xulosa qilish mumkinki, o‘zbek teatrлari zamon bilan hamnafas holda spektakllar sahnalashtirsagina tomoshabinlar e’tiborini torta olishi mumkin. Lekin bu siz-u biz o‘ylagandek oson ish emas. Chunki bu yuqoridagi G‘arb mamlakatidagi teatrлardan andoza oldik ham deylik. Kim kafolat bera oladi tomoshabinlar qalbida teatrga bo‘lgan muhabbat uyg‘onadi va yana hamma ma’naviy ozuqa olish uchun teatrлarga o‘z shaxsiy vaqtlarini ajratadi deb. Hech kim.

Demak, bizga G‘arb tajribasining o‘zi yetmaydi. Biz teatrларимизга bo‘lgan muhabbatni yosh avloddan boshlashimiz darkor. Bir yosh bolani doimiy ravishda teatrga olib kelib tursak, bu bolada borgan sari teatrga bo‘lgan muhabbat oshib boradi. Shundan keyin bu bola kelajakda teatrga bo‘lgan muhabbat kundalik yumushlari qatoriga kiradi. Teatrларимизга bo‘lgan muhabbat kundalik yumushlarga kirsagina biz to‘g‘ri yo‘lga qadam tashlayotganimizni his etamiz. Har bir spektaklni ko‘rgan bir bolakay bitta kitobni o‘qiganday, bitta asar bilan yaqindan tanishgan bo‘ladi. Lekin buning uchun avvalo kitobga bo‘lgan mehr, muhabbatni uyg‘otib olishimiz zarur. Kitob mutolaa qilgan har bir insonning tafakkur doirasi kengayadi. Undagi tasavvurning chek-chegarasi bo‘lmaydi. Natijada biror bir ishga qo‘l uradigan bo‘lsa, u ishni nima bilan yakunlanishini oldindan his qila boshlaydi. Kitob o‘qigan inson nafaqat san’atga mehr qo‘yadi, balkim hayotga bo‘lgan qiziqishi ortadi. Bu esa Yangi O‘zbekiston yoshlari uchun juda katta baxtdir. Bu borada yurtboshimiz Sh.M. Mirziyoyev shunday degan edi: “Adabiyot, san’at va madaniyat yashasa, millat va xalq, butun insoniyat bezavol yashaydi”, degan edilar. Albatta-da, san’at yashasa insonlar madaniylashadi. Madaniylashsa, insonlar bir-biriga bo‘lgan mehri jo‘shadi. Bir-birlariga mehrli insonlar esa yomon ishlar qilishmaydi. Bir so‘z bilan aytganda, barchamiz san’atga oshufta qalblarmiz.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Stanislavski K.S. Tanlangan asarlar. 2-jild. – M.: 1954
2. Stanislavski K.S. San’atdagi hayotim. – T.: Badiiy adabiyot. 1965
3. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi № 1., – T.: O‘zbekiston. 2000
4. Mahmudov J. Aktyorlik mahorati – T.: Bilim. 2005.